

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 4, 30 Апрель

INNOVATION IQTISODIYOT SHAROITIDA SAYYOHLIKNI RIVOJLANTIRISH VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Turopova Nigora Xolmurod qizi

Termiz Davlat Universiteti

nturopova@tersu.uz

Qurbonov Sanjar Soat o'g'li

Termiz Davlat Universiteti

Annotatsiya. Maqolada innovatsion iqtisodiyot sharoitida madaniy va dam olish xizmatlarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Maqolada sayyohlik sohasi global tarmoq sifatida istiqbolli eng yaxshi rivojlanayotgan soha ekanligi, uning ixtisoslashgan turlari mamlakat va mintaqa miqyosda shaxslararo, madaniy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlar rivojlanishiga ijobiy ta'siri o'rganildi.

Kalit so'zlar: sayyohlik, infratuzilma, savdo-sotiq, oziq-ovqat tarmoqlari, madaniy dam olish maskanlari, sanitariya sog'lomlashtirish xizmatlari

РАЗВИТИЕ ТУРИЗМА В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ И ЕЕ ОСОБЕННОСТИ

Аннотация: В статье научно проанализированы особенности развития культурно-досуговых услуг в условиях инновационной экономики. В статье рассматривается тот факт, что индустрия туризма является наиболее перспективной и развивающейся сферой как глобальная сеть, так и ее специализированные виды положительно влияют на развитие межличностных, культурных, социальных и политических отношений на региональном уровне.

Ключевые слова: туризм, инфраструктура, торговля, пищевая промышленность, культурно-оздоровительные центры, санитарномедицинское обслуживание.

DEVELOPMENT OF TOURISM IN THE CONDITIONS OF INNOVATIVE ECONOMY AND ITS SPECIFIC CHARACTERISTICS

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 4, 30 Апрель

Abstract: The article scientifically analyzes the features of the development of cultural and leisure services in the conditions of an innovative economy. The article discusses the fact that the tourism industry is the most promising and developing area, both the global network and its specialized types have a positive impact on the development of interpersonal, cultural, social and political relations at the regional level.

Keywords: tourism, infrastructure, trade, food industry, cultural and health centers, sanitary and medical services.

2023 yil 16 oktyabr kuni Samarqand shahrida Butunjahon turizm tashkiloti (YuNVTO) Bosh assambleyasining 25-sessiyasini o'tkazish doirasidagi Forumda dunyoning 140 dan ortiq mamlakatidan yuqori darajali delegatsiyalar ishtirok etayotgani global va mintaqaviy turizm markazlaridan biri sifatida O'zbekistonga bo'lgan qiziqish ortib borayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shartsharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5326-son Farmoni ijrosini ta'minlash, shuningdek, hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri sifatida ichki turizmni jadal rivojlantirish, fuqarolarni mamlakatimizning madaniy-tarixiy merosi hamda tabiiy boyliklari bilan tanishtirish maqsadida «O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!» ichki turizmni rivojlantirish dasturini amalga oshirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi [1]. Sayyohlik - fuqarolar o'zlarining doimiy yashash joylari, sog'lomlashtirish, o'rganish, kasbiy ish yuzasi, sport yoki boshqa maqsadlarda vaqtinchalik chiqishi bo'lib, unda xizmatlar iste'molchilarga quyidagi yo'nalishlar orqali taklif qilinadi: — sog'lomlashtirish (kurortda dam olish va davolanish tavsifidagi sog'lomlashtirish guruhleri); — o'rganish (ekskursiya dasturli turlar, muzeylarga tashrif buyurish, diqqatga sazovor joylarni ko'rish hamda madaniy chora-tadbirlarda faol ishtirok etish); — kasbiy-ish (majlis, konferensiya, kongress, savdo yarmarka va ko'rgazma ishlarida qatnashish, konsert, ma'ruzalarda chiqish qilish, kasbiy chora-tadbirlarda qatnashish, shartnoma tuzish bo'yicha muzokaralarda ishtirok etish, o'rganish va tadqiqot faoliyati, maxsus kurslarda qatnashish va hokazolar); — sport turlari (nokasbiy sport turlari bo'lib hisoblangan piyoda, ot, suv, chang'i, velosiped, suv osti suzish va boshqa suv sporti, baliq ovlash, ov va boshqalar. Shuningdek, sport

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 4, 30 Апрель

musobaqalarida qatnashish maqsadida taqdim etilgan turlar); — diniy (haj maqsadlari, diniy tadbirlarda ishtirok etish va qadrli joylarga tashrif buyurish marshrutlari). Biroq, joylardagi sayyohlik mavsumi bir-biriga to‘la mos kelmaydi. Bu holatda halqaro sayyohlik tizimida sayyohni jo‘natuvchi va uni qabul qiluvchi tomonlar mavjud bo‘ladi. Hamda sayyohlikning o‘zi o‘z navbatida ichki, kiruvchi, chiquvchi va mustaqil turlarga bo‘linadi. Ushbu xizmat turiga ixtisoslashgan servis tashkilotlari sayyohlik-ekskursiya xizmat ko‘rsatishni taklif etadilar hamda ular asosan aholi va xorijiy fuqarolarning sayyohlik-ekskursiya xizmatlarga bo‘lgan talablarining qondirilishiga yo‘naltiriladi. Avvalo, sayyohlik sohasida iste’molchilarga taklif etilayotgan xizmatlar kompleksi sayyohlik mahsuloti hisoblanib, sayyohlik mahsuloti sifatida sayyohlik turi keng namoyon bo‘ladi. Sayyohlik mahsulotini turistlarga turoperatorlar va turagentlar sotadilar. Shuningdek, sayyohlik-ekskursiya servis faoliyati doirasida quyidagi turdagi xizmatlarning turlari alohida guruhlariga bo‘linadi: turoperator tomonidan sayyohlik turlarini taqdim etish xizmatlari; turagent xizmatlari; mustaqil sayyohlikdagi xizmatlar; ekskursiya xizmatlar. Ekskursiya xizmatlar ekskursiyalarni taqdim etish va ekskursovodlar xizmatlarini o‘z ichiga oladi. Hamda sayyohlarga xizmat ko‘rsatish doirasida ularga transfer taqdim etilishi mumkin, ya’ni transfer sayyohni keladigan joyidan vaqtinchalik bo‘ladigan joyga joylashtirish va o‘z yashash joyiga etkazish uchun tashish bo‘yicha xizmat hisoblanadi [3, 18-b.]. Madaniy va dam olish xizmatlarining tarkibi yuqoridagi xizmatlar bilan birga sanatoriya-sog‘lomlashtirish xizmatlaridan ham iborat bo‘ladi. Avvalo, mazkur xizmat turini taqdim etish bo‘yicha servis faoliyati iste’molchilarga dunyoning eng qulay rekreatsion zonalarida dam olish vasog‘lig‘ini tiklash imkoniyatlarini ta’minlaydi. Biroq, sanatoriya-sog‘lomlashtirish xizmatlariga bo‘lgan ehtiyoj turlari mintaqada iqlim sharoitlarning inson sog‘lig‘iga ijobiy ta’sirini isbotlab bergan tibbiyotning rivojlanishi orqali vujudga keladi. Shuningdek, tabiat-davolash resurslariga mineral suvlar, davolovchi balchiqlar, shifobaxsh iqlim, kasalliklarni davolash va oldini olishni tashkil qilish, dam olishni tashkil etish maqsadlari uchun zarur bo‘lgan hamda foydalanilayotgan boshqa tabiiy ob’ektlar va sharoitlar kiradi. Ana shunday xizmatlardan foydalanishga kasaba uyushma tashkilotlari yaqindan ko‘maklashmoqdalar [4,47-b.]. Umuman olganda, sanatoriya-sog‘lomlashtirish xizmatlari bir-birlariga o‘zaro mos bo‘lgan quyidagi xizmatlar majmuasida gavdalanadi: yashash bo‘yicha xizmatlar, sanatoriyalarda davolanish bo‘yicha

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 4, 30 Апрель

xizmatlar, sanatoriya profilaktoriyalardagi xizmatlar, pansionatlarda davolanish xizmatlari, kurort poliklinikalaridagi xizmatlar, balneologik davolanish xonalaridagi xizmatlar, yil davomida faoliyat yuritadigan balchiq bilan davolash joylaridagi xizmatlar. Sanatoriya-sog'lomlashtirish xizmatlari sanatoriyalarda, sanatoriya profilaktoriyalarda, pansionatlarda va balneologik davolashxonalarida taqdim etiladi. Bu erda sanatoriy - qulay tabiiy sharoitlardan foydalanilgan holda insonlarning davolanishlari va dam olishlari uchun muassasa sanaladi. Sanatoriya-sog'lomlashtirish xizmatlarining iste'moli mavsumiy tavsifga ega bo'ladi. Xulosa sifatida aytish joizki, madaniy va dam olish xizmat turi hisoblangan sayyohlik-ekskursiya hamda sanitariya-sog'lomlashtirish xizmatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish asosida mamlakatning iqtisodiy salohiyati oshadi. Natijada, kelajakda madaniy va dam olish xizmatlarining barqaror rivojlanishi ta'minlanadi va uning imkoniyatlari yanada kengayadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan mamlakatda turizmni milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida rivojlantirishga, uni barqaror rivojlanish, tuzilmaviy o'zgartirishlar va iqtisodiyotni diversifikatsiyalashning qudratli vositasiga aylantirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Turizm sohasining yaratiladigan yalpi ichki mahsulotdagi, mahalliy budjetlar daromadlaridagi, bandlikni ta'minlash, aholining turmush darajasi va sifatini oshirishdagi hissasini oshirish bo'yicha faol ishlar olib borilyapdi. Xususiylar tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha o'tkazilayotgan islohotlar oqimida xususiylar tursanoat sektorini jadal rivojlantirish bo'yicha qulay shart-sharoitlar shakllantirilmoqda, jamoat tashkilotlari, kichik va o'rta biznes vakillaridan chiqayotgan tashabbuslar faol rag'batlantirilmoqda.

Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan turizm sanoati turistik mahsulotlar va xizmatlar sohasini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini yanada chuqurlashtirishga, raqobat kurashida o'z pozitsiyalarini yaxshilash uchun zamonaviy innovatsion yechimlarni joriy etishga qaratilgan.

2018 yili O'zbekistonda «**O'zaro Hisoblashishlar va Distributsiyalashning yagona neytral tizimi ishtirokchilari assotsiatsiyasi**» ta'sis etildi. Uning maqsadi turizm sohasining barcha yo'nalishlariga oid yagona axborot resurslari bankiga ega unifikatsiyalangan turistik navigatsiya tizimini shakllantirishdan iborat. Shuningdek iqtisodiy faoliyatni yuritishning teng huquqli shart-sharoitlarini hamda uning barcha

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 4, 30 Апрель

ishtirokchilari uchun biznes-jarayonlarning shaffofligini ta'minlash mexanizmni yaratish ham ko'zda tutilgan.

Yo'lovchi tashuvlarini va xizmatlarni sotish bo'yicha sifat jihatdan yangi jarayonlarni yaratishda, sotuvlar protseduralarini real soddalashtirish, texnologiyalarni standartlashtirish, hisobotlilikni shakllantirish va tizim ishtirokchilari o'rtasida kirimlar bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish yo'li bilan turistik agentliklarning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beruvchi noyob vositani bozorda joriy etishga tayyorlashda faol qatnashish Assotsiatsiyaning vazifalariga kiradi.

Assotsiatsiya qarorlari tufayli uning ishtirokchilari taqdim etiladigan xizmatlar sifati va turlarini sezilarli darajada oshirish, o'z turistik mahsulotini ichki va xalqaro bozorlarda yanada faolroq va ishonchliroq tarzda ilgari surish kabi noyob imkoniyatga ega bo'ladi.

Aviakompaniyalar, temir yo'l va avtobus kompaniyalari, turistik agentliklar, mehmonxonalar, tashuvlarni sotish bo'yicha agentliklar, o'quv markazlari, shuningdek kinoteatrlar, restoranlar, o'z faoliyatini ham O'zbekistonda, ham xorijda amalga oshiruvchi Event-agentliklar Assotsiatsiya ishtirokchisi va taklif qilinayotgan tizim foydalanuvchisi bo'lishi mumkin.

XULOSA

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida sayyohlikni rivojlantirish va uning o'ziga xos xususiyatlari quyidagi xulosa bilan ifodalangan: Innovatsion iqtisodiyot sharoitida sayyohlikni rivojlantirishda innovatsiyalar va texnologiyalar katta ahamiyatga ega. Yangi sayyohlik mahsulotlari, xizmatlar, va turli xil qulayliklar tajribachilarga taklif etilishi muhimdir. Bu texnologiyalar turli sohalarda qo'llanilishi mumkin, masalan, virtual realitiyani sayyohlik maqsadlari uchun ishlatish, ma'lumotlarni aniqlash uchun big data analizi, va turli turdagi ilmiy-ijtimoiy platformalar orqali mijozlar bilan munosabatlar o'rnatish. Sayyohlik sektoriga innovatsiyalar kiritilishi bilan turizm infrastrukturasining rivojlantirilishi muhim ahamiyatga ega. Bu shu jumladan, transport, mehmonxona, restoranlar, maqolat joylarini takomillashtirish, internet aloqalarini kengaytirish, va o'rtacha turizm mijozlarini qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi. Agar tashrif buyursa ("if-come" tourism) modeli innovatsion iqtisodiyot sharoitida sayyohlikni rivojlantirish uchun muhimdir. Bu model o'sha joylarda turistlarning kelishini rag'batlantirish uchun turli xil imkoniyatlarni taklif etishni o'z ichiga oladi. Misol uchun, shahar

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 4, 30 Апрель

administratsiyalari "agar tashrif buyursa" platformalari orqali turistlarni shaharga jalb qilish uchun maxsus tadbirlar va ko'rsatmalarni taqdim etishadi. Mahalliy menejment tajribasi va turizm sohasidagi hamkorlik innovatsion iqtisodiyot sharoitida sayyohlikni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Mahalliy hokimiyatlar, sayyohlik kompaniyalari, jamiyat tashkilotlari va boshqa tashkilotlar o'rtasida kuchli hamkorliklar yaratish orqali turizm tizimini rivojlantirish mumkin. Shunday qilib, innovatsion iqtisodiyot sharoitida sayyohlikni rivojlantirishga qaratilgan mashvaratlar va qabul qilingan qarorlar bilan turizm sohasida yangiliklarni o'rganish, uning o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanish yo'nalishlari turizm sanoati va iqtisodiyoti uchun katta ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR:

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shartsharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5326-son Farmoni. – Toshkent, 2018 yil, 3 fevral. <https://lex.uz/docs/3548467>.*

2. *Axmedov X.I., Allabergenov A.A. Turizm faoliyatini tashkil etish. - Toshkent, 2004. - 238 b.*

3. *Mualliflar jamoasi. Xizmat ko'rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari. Monografiya. - Toshkent, 2008.*

1. *4.Буранова Л. В. и др. Зарубежный опыт ипотечного жилищного кредитования //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – T. 2. – №. 19. – С. 437-345.*

2. *5.Turopova N. O 'zbekiston moliya tizimida mahalliy moliyaning o 'ziga xos xususiyatlari. – 2023.*

3. *Буранова, Л. В. (2023). ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ИПОТЕЧНОГО ЖИЛИЩНОГО КРЕДИТОВАНИЯ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(19), 437-345.*

4. *Turopova, N. (2023). O 'zbekiston moliya tizimida mahalliy moliyaning o 'ziga xos xususiyatlari.*

5. *Turopova, N., & Jumanazarov, H. (2024). O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA GID HAMROHLIGI VA TARJIMONLIK FAOLIYATINING AHAMIYATI. Молодые ученые, 2(9), 129-131.*

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 4, 30 Апрель

6. Turopova, N., & Ochilov, J. (2024). MAKABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARI ORQALI BOLALARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'GATISH BORASIDA OLIB BORILGAN ILMIY TADQIQOT ISHLARI TAHLILI. *Молодые ученые*, 2(9), 124-128.
7. Turopova, N., & Daniyarov, I. (2024). O 'ZBEKISTONDA SHAXSIY OLIYAVIY JAMG 'ARMA YIG 'ISHDA OYLIK MAOSHNING O'RNI. *Молодые ученые*, 2(9), 60-62.
8. Turopova, N., & Buriyev, A. (2024). ASSESSMENT AND IMPLEMENTATION METHODS OF THE EFFECTIVENESS OF MARKETING ACTIVITIES. *Молодые ученые*, 2(9), 24-29.
9. Turopova, N., & Abdurahmonov, B. (2024). MARKETING: MARKETING FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI. *Молодые ученые*, 2(9), 4-11.
10. Turopova, N., & Qudratov, I. (2024). INFLYATSIYA: O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA INFLYATSIYA DARAJASI. *Молодые ученые*, 2(9), 91-97.
11. Turopova, N., & Jo'rayev, A. (2024). TALABA-YOSHLAR TA'LIM DASTURIDA IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNI O 'RGATISH METODOLOGIYASI. *Молодые ученые*, 2(9), 63-66.
12. Turopova, N., & Norbekov, Z. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, AFZALLIKLARI VA AMALIY AHAMIYATI. *Молодые ученые*, 2(9), 103-106.
13. Turopova, N., & Norbayev, S. (2024). TIJORAT BANKLARIDA QIMMATLI QOG'OZLARGA QILINGAN INVESTITSİYALAR TAHLILI VA SHU BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR. *Молодые ученые*, 2(9), 85-87.
14. Turopova, N., & Keldiyev, A. (2024). MAMLAKAT BANK TIZIMINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MASALALARI. *Молодые ученые*, 2(9), 76-78.
15. Turopova, N., & Elomonov, H. (2024). O 'ZBEKISTONDA HUDUDLAR KESIMIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH HOLATI. *Молодые ученые*, 2(9), 36-42.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 4, 30 Апрель

16. Turopova, N., & Jo'lliyev, M. (2024). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IQTISODIYOTNING TUTGAN O'RNI. *Молодые ученые*, 2(9), 67-72.

17. Turopova, N., & Elmurodova, M. (2024). TEXNOLOGIYALARNING RIVOJLANISHINING ISH O'RNIGA TA'SIRI. *Молодые ученые*, 2(9), 33-35.

18. Turopova, N., & Misirov, T. (2024). O'ZINI O'ZI BOSHQARISH. *Молодые ученые*, 2(9), 111-113.

19. Turopova, N., & Jumayev, R. (2024). YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH MASALALARI. *Молодые ученые*, 2(9), 73-75.

20. Turopova, N., & Choriyev, M. (2024). "ISLOM IQTISODIYOTI" VA "ISLOM MOLIVASI" TUSHUNCHALARI VA ISHLASH TARTIBI. *Молодые ученые*, 2(9), 30-32.

21. Turopova, N., & Ergasheva, F. (2024). TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI VA AXBOROT RESURSLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI. *Молодые ученые*, 2(9), 43-45.